

HUMAN
RIGHTS
WATCH

“Eng so’nggi lahzagacha”
O‘zbekistondagi siyosiy mahbuslar

Copyright © 2014 Human Rights Watch

All rights reserved.

Printed in the United States of America

Cover design by Rafael Jimenez

Human Rights Watch defends the rights of people worldwide. We scrupulously investigate abuses, expose the facts widely, and pressure those with power to respect rights and secure justice. Human Rights Watch is an independent, international organization that works as part of a vibrant movement to uphold human dignity and advance the cause of human rights for all.

Human Rights Watch is an international organization with staff in more than 40 countries, and offices in Amsterdam, Beirut, Berlin, Brussels, Chicago, Geneva, Goma, Johannesburg, London, Los Angeles, Moscow, Nairobi, New York, Paris, San Francisco, Sydney, Tokyo, Toronto, Tunis, Washington DC, and Zurich.

For more information, please visit our website: <http://www.hrw.org>



“Eng so’nggi lahzagacha”

O‘zbekistondagi siyosiy mahbuslar

Xulosa	1
Tavsiyalar	8
O‘zbekiston hukumatiga.....	8
Yevropa Ittifoqi va unga a‘zo davlatlarga	9
Yevropa Ittifoqiga a‘zo davlatlarning tegishli organlariga:	10
Yevropa Ittifoqi ko‘rishi kerak bo‘lgan boshqa choralar.....	10
Amerika Qo‘shma Shtatlariga	11
AQSh ko‘rishi kerak bo‘lgan boshqa chorlar	11
Birlashgan Millatlar Tashkilotiga.....	12

Xulosa

O'zbekistonning qo'rqinch bilan tilga olinadigan Milliy xavfsizlik xizmati, qisqacha "SNB" deb tanilgan organ xodimlari 1999-yilda Ukraina poytaxti Kiyevdan Muhammad Bekjonovni o'g'irlab olib ketadi. Tinch yo'l bilan kurashishga bel bog'lagan "Erk" muxolif partiyasining nufuzli a'zosi bo'lgan Bekjonov shu nomdagi gazetaning bosh muharrir edi. "Erk" yetakchi mustaqil nashr hisoblanar edi. Avtoritar prezident Islom Karimov boshchiligida siyosiy muxolifatga qarshi keskin tazyiq va bosimlar avj olar ekan, Bekjonov bundan ikki yil oldin vatanni tark etib, Ukrainadan qo'nim topgan edi. O'zbekistonga majburan olib kelinib, qiynoqlar, xususan, elektr shokka solingan, qattiq do'pposlangan va bo'g'ish singari usullar bilan azoblangan mahbus yashirin sudda 13 yilga ozodlikdan mahrum etiladi. Unga qo'yilgan asosiy ayblardan biri - "konstitutsion tuzumga tahdid solish".

2012-yilning yanvar oyi oxirida Bekjonovning qamoq muddati tugashi kerak edi. Lekin u panjara ortidagi tartibni, mavhum qoidalarni buzganlikda ayblanib, jazo muddatiga yana besh yil qo'shiladi. Bekjonov u bilan sudlangan do'sti qatorida dunyoda eng uzoq vaqt qamoqda saqlangan jurnalistdir. Bekjonovning aybi - u singari O'zbekistonda o'tirgan boshqa siyosiy mahbuslar qilgan "jinoyat" – uzviy huquqlardan tinch yo'l bilan foydalangani, xususan so'z erkinligi va uyushish erkinligidan. Ular kabi Bekjonov ham zo'ravonlik qilmagan, aniq bir jinoyat sodir etgani isbotlanmagan.

Bekjonov O'zbekiston hukumatining minglab "dushmanlaridan" biri sifatida ko'riladi. 1990-yillar boshida beri hukmron repressiv siyosatni qoralagani uchun nishonga olingan faollardan biri. Tuzum qurbonlari orasida inson huquqlari himoyachilari, diniy yetakchilar, taqvodorlar, madaniyat arboblari, ijodkorlar, san'at namoyondalari va tadbirkorlarni ko'rasiz. Bu insonlar o'z fikrini ochiq aytgani, huquq va adolat haqida gapirgani sabab davlat dushmani deya tamg'alangan. Ularning birortasi tinchlikka raxna solmagan, tuzumni tanqid qilgan xolos.

Mahbuslarning qarindoshlari, advokatlar, huquq faollari, olimlar, ekspertlar va sobiq rasmiylar bilan qilingan 150 dan oshiq suhbat va boshqa ishonchli ma'lumotlarga asoslangan ushbu hisobot 34 ishga yaqindan nazar tashlaydi. Bu hujjat sizni O'zbekistonning siyosiy mahbuslari taqdiri bilan tanishtiradi. Biz bilan muloqot qilganlar orasida tuzumga qarshi jinoyatlarda ayblanib, qamoqda o'tirib chiqqanlar ham bor.

Human Rights Watch mahbuslarning qiynoqqa solingani haqida aniq ma'lumotlarga ega va O'zbekiston hukumatini ularni zudlik bilan ozod etishga undab keladi.

15 siyosiy mahbus huquq faollaridir: A'zam Farmonov, Mehriniso Hamdamova, Zulhumor Hamdamova, Isroiljon Xoldorov, Nosim Isoqov, G'aybullo Jalilov, Nuriddin Jumaniyozov, Matluba Komilova, G'anixon Mamatxonov, Chuyan Mamatqulov, Zafarjon Rahimov, Yo'ldosh Rasulov, Bobomurod Razzoqov, Faxriddin Tillayev va A'zam Turg'unov.

5 siyosiy mahbus jurnalistlardir: Solijon Abdurahmonov, Muhammad Bekjonov, G'ayrat Mihliboyev, Yusuf Ro'zimurodov va Dilmurod Saidov.

4 siyosiy mahbus muxolifatchilardir: Murod Jo'rayev, Samandar Qo'qonov, Qudratbek Rasulov va Rustam Usmonov.

3 siyosiy mahbus nufuzli dindorlardir: Ruhiddin Faxriddinov, Hayrullo Hamidov va Akrom Yo'ldoshev.

7 siyosiy mahbus esa 2005-yilning 13-mayida Andijonda yuz bergan qatliom, hukumat yuzlab begunoh odamlarni oqqa tutganidan keyin qamalgan tanqidchilar yoki guvohlar: Dilorom Abduqodirova, Botirbek Eshqo'ziyev, Bahrom Ibragimov, Davron Qobilov, Erkin Musayev, Davron Tojiyev va Ravshanbek Vafoyev.

Bu ishlar O'zbekistonda siyosiy sabablarga ko'ra sudlangan juda ko'p sonli insonlarning hammasini aks ettirmaydi, albatta. Bu ishlarni boshqalarnikidan ustun qo'yayotganimiz ham yo'q. Aksincha, respublikaning barcha viloyatlaridan chiqqan bu 34 inson taqdiri misolida O'zbekistondagi repressiya, siyosiy zulmni fosh etmoqchimiz.

Bu odamlar naqadar iste'dodli, ilg'or va serg'ayrat bo'lgani, fuqaro jamiyatini barpo etish va taraqqiyot yo'lida ulkan hissa qo'shganini hisobga olsak, ularning qamalishi yurt uchun katta fojia bo'lgan.

Human Rights Watch olib borgan tekshiruv shundan dalolat beradiki, siyosiy mahbuslar har jihatdan huquqbuzarlik qurbonlaridir.

34 mahbusdan:

- Kamida 29 nafari suddan oldin va qamoq jazosiga hukm qilinganidan keyin qiynoqqa solingan va azoblangan;
- Kamida 18 nafari tergov va sud jarayonida advokat bilan ta'minlanmagan. Qamoqda jazo muddati uzaytirilganida ham ularning huquqi himoya qilinmagan.
- Kamida 8 nafari O'zbekiston va xalqaro qonunlarga zid ravishda uzoq paytda bedarak ketgan, ya'ni ularning qayerda qancha payt va nima uchun hibsdan bo'lgani ma'lum qilinmagan.
- Kamida 6 nafari 15 yil va undan uzoq davrdan beri qamoqda. 2 nafari, jumladan Murod Jo'rayev va Samandar Qo'qonov 20 yildan oshibdiki panjara ortida. 22 nafari esa 10 yoki undan uzoq yilga qamalgan.
- Kamida 9 nafarining yoshi 60 dan oshgan. 4 nafari ayollar. Demak, O'zbekiston qonunlariga binoan ular amnistiya asosida chiqarib yuborilishi kerak. Biroq bu insonlar qamoqda turli qoidalarini buzganlikda ayblanib, kechirimga loyiq ko'rilmaydi.
- Kamida 11 nafari jazoni o'tash maskanlaridagi tartibga rioya qilmaganlikda ayblanib, ularning muddati uzaytirilgan. Aynan nima jinoyat qilgan, buni organlar tushuntirmaydi, bildirmaydi. Ayrim hollarda jazo muddati bir necha bor, masalan, bir mahbusniki to'rt marotaba uzaytirilgan.
- Kamida 15 nafari og'ir kasal, xususan silga chalingan, nerv tizimi zararlangan, suyaklari singan, shunidek, qon bosimi, yurak va oshqozon bilan bog'liq kasalliklardan azob chekadi.
- Kamida 9 nafariga tibbiy muolaja olishi uchun ruxsat berilmagan.
- Kamida 12 nafari shafqatsiz va noinsoniy holga solinib, o'ta issiq va o'ta sovuq muhitda, ba'zi hollarda esa uzoq payt izolyatorda saqlangan.
- Kamida 4 nafari "Jasliq" qamog'ida o'tirgan yoki ayni damda o'sha yerda. Bu maskan uzoq yillardan beri qiynoq va azob o'chog'i sanaladi. Buni isbotlovchi ko'plab hujjatlar bitilgan. Ko'plab davlatlar va xalqaro tashkilotlar "Jasliq" yopilsin deb undab keladi.

- 5 nafari boshqa davlatlardan o'g'irlab olib kelingan. Jumladan, Qozog'iston, Qirg'iziston va Ukraina. Ular noqonuniy ravishda keltirilgan, xalqaro qonuniy me'yorlar qo'pol ravishda buzilgan.
- Kamida 1 holatda mahbus umuman bedarak ketgan. U hozir tirik yoki o'lik, butkul noma'lum.

Bu hisobot 34 siyosiy mahbus ishiga yaqindan nazar tashlaydi. Qamoqqa olinishidan oldin bu insonlar faoliyati nimadan iborat bo'lgani, ularga qanday ayblar qo'yilgani, panjara ortidagi qiynoqlar va azob, hozir qayerdaligi va sog'ligi haqida informatsiya olasiz.

Tahlilnomaning bir qismi bu mahbuslarga nisbatan munosabatda O'zbekiston hukumati xalqaro qonunlarni qanchalik buzganini tushuntirib beradi. Bunda biz 34 inson boshdan kechirgan hollarni ko'rib chiqamiz. Shu bilan birga sobiq siyosiy mahbuslardan olingan ma'lumotlarga asoslanamiz. Suhbatdoshlarimizning ayrimlari o'tgan yili ozodlikka chiqqan.

Siyosiy mahbuslarga nisbatan eng keng kuzatiladigan huquqbuzarliklar: advokatga ruxsat berilmasligi; mahbus haqida umuman axborot bermaslik; suddan oldingi va keyingi qiynoqlar; izolyatorda saqlash; tibbiy muolajadan ayirish; ataylab amnistiya bermaslik va jazo muddatini turli asossiz sabablarga ko'ra uzaytirish. Bu hollar O'zbekiston qonunlari va xalqaro inson huquqlari majburiyatlarining o'ta jiddiy va qo'pol tarzda buzilishidir.

Human Rights Watch to'plagan ma'lumotlardan ayonki, siyosiy mahbuslar ko'p hollarda odamlar haddan tashqari to'lib ketgan kameralarda saqlanadi; ularga yetarlicha ovqat va suv berilmaydi, berilsa ham sifati juda yomon, qolaversa zarur tibbiy xizmat ko'rsatilmaydi. Sharoit xalqaro talablarga javob bermaydi. Uzoq yillardan beri qamoqda o'tirgan mahbuslar kasallangach ularga muolaja uchun imkoniyat berilmaydi. Nima sabab og'ir xastaliklarga duchor bo'lgani tekshirilmaydi va qamoqdagi sharoitga e'tibor juda past. Bu degani O'zbekiston o'z zimmasidagi eng asosiy xalqaro burchlarini ado etmayapti. Mahbusga zarur tibbiy xizmat ko'rsatilmasligi unga nisbatan noinsoniy munosabatda bo'lishdir.

Human Rights Watch izlanishlariga ko'ra, jazoni o'tash muassasalari rahbarlari kimni amnistiya tushirish borasida muayyan vakolatlarga ega, shuningdek, bu masala yuzasidan yuqoridan buyruqlar oladi. Xususan, kimni nima bahona bilan bu ro'yxatga

qo'shmaslik, "aybini kechirmaslik" uchun nima qilmoq zarurligi ko'rsatiladi. Amnistiya turli sabablarga ko'ra ularga taalluqli bo'lsa ham siyosiy mahbuslar chetlab o'tiladi.

Jazo muddatini uzaytirishda eng ko'p ko'rsatiladigan sabab bu "qamoqdagi tartibni buzish". Biz ishini ko'rib chiqqan 34 mahbus va gaplashgan 10 sobiq mahbus orasida kamida 14 nafarining muddati uzaytirilgan. Ko'piniki bir martadan ko'proq holda, masalan Murod Jo'rayevniki to'rt bor. Bu ish ko'pincha sudsiz amalga oshiriladi.

O'zbekiston Jinoyat kodeksining 221-moddasi "Jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyatining qonuniy talablariga bo'ysunmaslik" to'g'risida bo'lib, bu ko'p hollarda "qamoqdagi tartibni buzganlik" deya tushuntiriladi. Mutassaddilar shunga binoan jazo muddatini uzaytiradi. Ichki ishlar vazirligi mahbuslar axloqini nazorat qiluvchi umumiy qoidalariga ega, biroq "buyruq" nimaga asoslanishi mavhum. 221-moddada keltirilgan jinoyat aynan nimadan iborat, bu aniq izohlanmaydi.

Human Rights Watch O'zbekiston qamoqxonalari tartibni buzish qay hollarda jinoyat sanalishi haqida konkret ma'lumotlarga ega emas, chunki buni biror mutasaddi tushuntirmaydi. Biror sobiq mahbus, mahbusning yaqinlari yoki advokatlari ham bu borada tushunchaga ega emas. Qoidalar haqida hukumatdan so'raganimizda iltimosimiz qondirilmadi.

Human Rights Watch quyidagilarni aniqladi: ko'pyillik uzaytirishlar asosan arzimagan va mantiqsiz sabablarga borib taqaladi. Deylik, og'ir narsani ko'tara olmaslik, oq ko'ylak kiyish, oyoq kiyimni to'g'ri qo'ymaslik yoki kamerani toza supurmaslik. Sobiq mahbuslar, advokatlar, fuqaro jamiyati faollari va hatto qamoqxona rasmiysi bilan suhbatimizdan shuni bildikki, "qamoqxonadagi tartibni buzish" aybi bahona xolos. Maqsad bir amallab jazo muddatini uzaytirish va bu shaxsni amnistiya ilintirmaslik.

Buning ustiga turma va lagerlardagi sharoitni monitoring qilish tizimi yo'lga qo'yilmagan. Mahbus shikoyat qilishi uchun aniq yo'l-yo'riq, zarur mexanizm mavjud emas. Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasi hukumat bosimi sabab 2013-yilning aprel oyidan binoan hibsxona va qamoqxonalardan qadamini uzganidan beri vaziyat yanada og'irlashgan. Mahbuslarni do'pposlash, qiynash, izolyatorga tashlash, jinsiy tajovuz, o'ta issiq yoki sovuq muhitda qoldirish singari hollar, shuningdek, sil va boshqa yuqumli kasalliklar keng tarqalgan. Bular mahbus vujudini ruhan va jismonan ishdan chiqaradi.

O'zbekiston inson huquqlari, xususan, so'z va matbuot erkinligi, uyushish, birlashish va diniy erkinliklarni kafolatlovchi Fuqaro va Siyosiy Huquqlar Xalqaro Konvensiyasi hamda qiynoqlarni man etuvchi Qiynoqlar bo'yicha Konvensiyasini imzolagan bo'lsada, hukumat ularga bosh egmay kelmoqda va biror marotaba qilmishlari uchun javob bermagan. O'zbekiston rahbariyati mamlakatda siyosiy mahbuslar borligini inkor etadi, vaholanki, ko'plab fuqarolar aynan siyosiy motivlar asosida tazyiqqa olingan, sudlangan va uzoq muddatga qamalgan. Siyosiy mahbuslarni qo'yib yuboring degan chaqiriqlarga tuzum befarq. Jazoni o'tash zonalaridagi sharoit yaxshilanmagan, qolaversa jamiyatda repressiya to'xtamagan. Hukumat xalqaro tizimlar, jumladan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson Huquqlari Kengashi, shuningdek, BMT Inson Huquqlari Qo'mitasi, Qiynoqlarga Qarshi Qo'mita hamda Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasi bilan real hamkorlikdan bosh tortadi, yuzaki gaplar bilan cheklanadi.

O'zbekistonda inson huquqlari bilan bog'liq muammolarni ko'tarib, tuzumni adolatga undab keladigan Amerika Qo'shma Shtatlari, Yevropa Ittifoqi va blokning muayyan a'zolari uzoq yillar davomida vaziyatni keskin qoralagan. Andijon voqealari ketidan bu tanqidlar ayniqsa kuchayib, sanksiya va cheklovlar joriy etildi. Yevropa Ittifoqi va AQSh rasmiylari bu hisobotda tilga olingan siyosiy mahbuslardan ayrimlarining ishiga jiddiy e'tibor qaratgan bo'lsada, so'nggi besh yilda bu boradagi harakatlar ancha susaygan. Siyosiy mahbuslar masalasi O'zbekiston uchun tashqi dunyo bilan aloqalarda to'siq bo'lmay qoldi. Chunki Afg'onistondagi harbiy maqsadlar yo'lida ko'rsatayotgan iltifoti va yuk tashiladigan yo'nalishda joylashgani uchun respublikaning geosiyosiy ahamiyati oshgan.

Gap shundaki, O'zbekiston hukumati muntazam ravishda bosimga olinganida, sanksiyalar qo'yilganida, harbiy yordam cheklanganida, yirik hamkor davlatlar aniq tanqidlar bilan chiqqanida mamlakatda inson huquqlari bobida ijobiy o'zgarishlar ro'y bergan. Sammitlar va yuqori darajali uchrashuvlar oldidan ayrim siyosiy mahbuslar ozodlikka chiqarilgan. Lekin hozirda bunday bosim qo'yilmayotgani bois O'zbekiston hukumati xalqaro majburiyatlariga ko'z yummoqda, hatto huquq bilan bog'liq muammolar borligini ham rad etib kelmoqda.

2013-yilning sentabr oyida, masalan, BMT Inson Huquqlari Kengashi O'zbekistondagi vaziyatni ko'rib chiqayotganida (Universal Periodic Review-UPR) respublika delegatsiyasi boshlig'i Akmal Saidov a'zo davlatlar va nohukumat tashkilotlarning tavsiyalarini chetga surib, asossiz iddaolar qildi. Xalqaro hamjamiyat siyosiy mahbuslarni ozod eting deb

turganiga qaramay rasmiy “O‘zbekistonda siyosiy mahbuslar yo‘q” deya bong urdi. Biror shaxs nohaq qamalganini tan olmagan Saidov qo‘lini stolga urib, xalqaro tavsiyalarni “yolg‘on va tuhmat” deb atadi. Uningcha, bu tavsiyalar go‘yoki O‘zbekiston nomini bulg‘ash maqsadida nohukumat tashkilotlar tomonidan uyushtirilgan siyosiy xurujlardir.

O‘zbekiston hukumati bunday mantiqsiz va asossiz chiqishlari bilan haqiqatni yashirishga qanchalik urinmasin, xalqaro bosim to‘g‘ri qo‘llangan taqdirda samara berishi mumkinligi ko‘p marta isbotlangan. Siyosiy mahbuslar shu tarzda ozod etilishi mumkin. Ushbu hisobotda keltirilgan faktlar xalqaro hamjamiyatga, O‘zbekistonning hamkorlariga, BMT Inson Huquqlari Kengashiga a‘zo mamlakatlarga, Amerika va Yevropa Ittifoqiga hamda boshqa tegishli davlatlarga, shuningdek, mintaqaviy tashkilotlar va xalqaro moliya organlariga siyosiy mahbuslar taqdiri bag‘oyat dolzarb, jiddiy e‘tibor talab qiladigan muammo ekanini uqtiradi. Bu insonlar zudlik bilan ozod etilishi uchun konkret choralar ko‘rish kerak.

Human Rights Watch nazarida, O‘zbekiston muammoni tan olmay, siyosiy mahbuslarni qo‘yib yuborishdan bosh tortar ekan, o‘tgan o‘nyillikda huquq bobida muayyan yutuqlarga erishilmaganini hisobga olib, Vashington, Bryussel, Berlin va London singari siyosiy markazlarda hamda BMT Inson Huquqlari Kengashida O‘zbekistonga nisbatan strategiya qayta ko‘rib chiqilishi va yangilanishi lozim, toki respublikada ijobiy qadamlar tashlansin.

Islom Karimov azaldan konkret islohotlar qilishdan bosh tortib keladi. G‘arb davlatlari islohotlar bo‘ladi deya ishonib sanksiyalarni bekor qilganiga qaramay yillar o‘tib ham biror o‘zgarishga guvoh emasmiz. O‘zbekistonning xalqaro sheriklari Toshkentga oshkora va yopiq eshiklar ortida shuni aniq va qat‘iy tarzda bildirishi kerakki, konkret o‘zgarishlar qilinishi shart. Xususan barcha siyosiy mahbuslar ozod etilishi va huquqni qo‘pol ravishda buzishga chek qo‘yilishi zarur. Hamkor davlatlar O‘zbekistonda qonunlar poymol etilishi sistematik muammo ekanini ochiq aytib, buning salbiy oqibatlari haqida ogohlantirib turishi kerak. O‘zbekiston hukumati inson huquqlarini keng tarzda oyoq osti qilayotgani uchun javob berishi lozim.

Toshkentga nisbatan yondashuv tubdan yangilanib, xalqaro talab ochiqchasiga kuchaymas ekan, mamlakatda ahvol og‘irligicha qolaveradi. Muhammad Bekjonov, Yusuf Ruzimurodov, Murod Jo‘rayev, Samandar Qo‘qonov va Dilorom Abduqodirova singari bu hisobotda taqdiri bitilgan siyosiy mahbuslar va ularning oilalari azobda yashayveradi. Son-sanoqsiz odamlarning hayoti zulmatda qolaveradi.

Tavsiyalar

O'zbekiston hukumatiga

- **Bu hisobotda tilga olingan barcha mahbuslarni darhol va shartsiz ozod eting.** Bu shaxslar o'z siyosiy qarashlarini tinch yo'l bilan izhor etgan faollar, jurnalistlar yoki dindorlardir. Agar birortasi zo'ravonlikka qo'l urib, jinoyat sodir etgani haqida asosli ma'lumot bo'lsa, unda xalqaro talablarga javob beradigan adolatli sudda ularning ishlari yangidan ko'rib chiqilsin.
- **Hibsonalar va jazoni o'tash muassasalarida qiynoqlar darhol bas qilinishi uchun favqulodda choralar ko'ring.** Gumon qilingan shaxs yoki ayblanuvchi tergovning har bir bosqichida advokat bilan ta'minlansin va unga o'z ishini bemalol bajarishi uchun imkoniyat yaratilsin. Mahbuslarga zarur tibbiy xizmat ko'rsatilsin. Hibsona va qamoqxonalardagi vaziyat mustaqil monitoring qilinsin.
- **Har bir ayblanuvchining sudi adolatli o'tishini ta'minlang.** Jarayonda yo'l qo'yilgan huquqbuzarliklar o'z vaqtida tekshirilsin, tegishli tomonlar javobgarlikka tortilsin. Sudyalar ayblanuvchi qiynoqqa solingani va guvohlar tergovchilar tomonidan qo'rqitilgani haqidagi da'volarni jiddiy qabul qilib, ularni inobatga olsin. Qiynoq va azob yo'li bilan yig'ilgan isbot-dalil qabul qilinmasin. Soxta ma'lumotlar qayerdan kelgani tekshirilsin.
- **Mahbuslarning oila a'zolariga ularning qayerda saqlanayotgani va sog'ligi haqida ma'lumot berilsin.** Jurnalistlar, huquq himoyachilari va nohukumat tashkilotlar bilan gaplashgan yaqinlar organlar tomonidan bosimga olinmasin. Bunday hollar darhol tekshirilsin.
- **Mahbuslarni qiynoqqa solgan, azoblagan, inson huquqlarini poymol etgan barcha rasmiylar, xavfsizlik xizmati xodimlari, jazoni o'tash muassasalaridagi mutassaddilarning qilmishlari tekshirilib, ular javobgarlikka tortilsin.**
- **BMTning Qiynoqlar va Boshqa Shafqatsiz, Noinsoniy va Tahqirlovchi Munosabatlarga Qarshi Konvensiyasiga bo'ysuning va bu hujjatga qo'shimcha protokolni ratifikatsiya qiling.** U O'zbekistondan hibsona va qamoqxonalarga xalqaro ekspertlar kiritishni hamda tizimda qiynoqlarning oldini olish uchun mahalliy mustaqil mexanizm yaratishni talab qiladi.

- **BMTning Qiynoqlarga Qarshi Qo'mitasi 2013-yilning noyabrida bergan tavsiyalar, shuningdek, BMTning Qiynoqlarga Qarshi Maxsus Vakili 2003-yilning fevralida uzatgan ko'rsatmalarni darhol va to'liq amalga oshiring.** Maxsus Vakil 2002-yilda respublikaga safar qilib, vaziyatni o'rgangan va "Jasliq" 64/71 qamoqxonasini darhol yopish kerak deya undagan edi.
- **BMT maxsus vakillari 11 yildan beri O'zbekistonga kirish uchun ruxsat so'rab keladi. Ularni qabul qiling, jumladan, Qiynoqlarga Qarshi Maxsus Vakilni.** Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasi va boshqa mustaqil kuzatuvchilar qamoqxonalarga kirib, ahvol bilan tanishishi uchun zarur imkoniyat yaratib berilsin. Ular o'z vazifalarini bajarishida to'sqinlik qilinmasin.
- **Siyosiy sabablarga ko'ra qamalgan insonlarni ataylab amnistiya bilan ilintirmaslik va ularning jazo muddatini turli asossiz bahonalar bilan uzaytirishni bas qiling.** Jinoyat kodeksining 221-moddasida qayd etilgan jinoyat - "qamoqxonadagi tartibni buzish" aynan nimadan iborat ekanini tushuntiring.
- **Jinoyat kodeksidagi moddalarni xalqaro standartlarga mos holda aniqlashtiring.** Xususan 158-modda "prezidentga tahdid qilish"; 159-modda "konstitutsion tuzumga tahdid qilish" va 244-moddaning 2-bandi "man etilgan eksremist, fundamentalist yoki boshqa turdagi tashkilot tuzish, uni boshqarish yoki unga a'zo bo'lish" to'g'risidagi qonunlarni. Bu moddalar ko'p hollarda fuqaroning so'z va fikr erkinligini yoki diniy huquqlarini buzish uchun bahona sifatida qo'llaniladi.
- **Haqorat va tuhmat to'g'risidagi 139 va 140-moddani bekor qiling** va xalqaro me'yorlarga moslashtirilgan holda fuqarolarning so'z va fikr erkinligini ta'minlang.
- **Fuqaro jamiyati, huquq faollari, jurnalistlar va boshqalarga tazyiqni to'xtating.** Ular bosim va hukumat aralashuvisiz ishlay olsin. Mahalliy huquq tashkilotlari ro'yxatga olinsin, O'zbekistondagi faoliyati tugatilgan xorijiy nohukumat tashkilotlar qayta qabul qilinib, xodimlariga viza berilsin, ular akkreditatsiyadan o'tsin.

Yevropa Ittifoqi va unga a'zo davlatlarga

- O'zbekistonda inson huquqlari bilan bog'liq avhol og'ir ekani, Yevropa Ittifoqi davlatlari talab va me'yorlariga javob bermasligi va tashqi ishlar vazirlari qayd etgan tamoyillarga nomutanosib ekani hisobga olinib, **respublikaga nisbatan siyosat qayta ko'rib chiqilsin.**

Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarning tegishli organlariga:

- **Tashqi Aloqalar Kengashi** o'z bayonotlarida va'da berganidek, "izchil va kuchli" munosabatlar O'zbekistonda islohot va progressga bog'liqligini isbotlang.
- Yevropa Ittifoqi Oliy vakili va tashqi ishlar vazirlari O'zbekiston hukumatiga muayyan vaqt ichida **Tashqi Aloqalar Kengashi talablarini bajarishni shart sifatida qo'yishi kerak. Aks holda inson huquqlarini qo'pol ravishda buzishda gumon qilingan organlar va rasmiylarlarga cheklovlar qo'yilishi kerak.** Xususan, ularga viza berishni man eting. Qiynoqlar va boshqa huquqbuzarliklarga gumon qilingan, shuningdek, huquq himoyachilari, jurnalistlar, siyosiy faollar va muxolifatchilarni qamash hamda mustaqil fuqaro jamiyatiga nisbatan tazyiq va repressiyada ayblangan rasmiylarning mulklarini muzlatish va boshqa turdagi sanksiyalar qo'yish haqida o'ylang.

Yevropa Ittifoqi ko'rish kerak bo'lgan boshqa choralar

- O'zbekiston hukumati BMT inson huquqlari organlari bilan hamkorlik qilishdan bosh tortib kelar ekan, respublikada huquqbuzarlik hollari hamon keng ekan, **Inson Huquqlari Kengashi qoshida aynan bu mamlakat bo'yicha maxsus organ tuzib, vakil tayinlash tashabbusini quvvatlang.**
- **O'zbekiston hukumati mahalliy inson huquqlari tashkilotlarini ro'yxatga olib, xorijiy nohukumat tashkilotlarni mamlakatga qayta kiritsin.** Ularning xodimlariga visa bersin, akkreditatsiyadan o'tkazsin.
- Yevropa Ittifoqi va unga a'zo davlatlarning Toshkentdagi vakolatxonalari O'zbekistonda inson huquqlari qanchalik buzilayotgani, siyosiy repressiya va aynan siyosiy sabablar bilan qamoqqa olish hollari, huquq faollariga tazyiqlar va qiynoqlarga befarq bo'lmasin; vaziyatni muntazam ravishda yaqindan kuzatib borsin, bu haqida ochiq gapirsin va chora ko'rishga chaqirsin. Diplomatlarni mahalliy huquq himoyachilari bilan muloqot qilsin, sudlarni borib kuzatsin, mutassaddilar bilan bu muammolarni ko'tarsin, vaqti-vaqti bilan qamoqxonalarni borib ko'rsin.
- **Siyosiy mahbuslar taqdiri, qiynoqlar, adolatsiz sudlar va huquqbuzarliklar xususida ochiq gapiring va xavotiringizni bayon eting.** Nafaqat Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston orasida inson huquqlari yuzasidan muloqot paytida balki jamoatchilik oldida ham. Yevropa Ittifoqini bezovta qilayotgan muammolarni ko'tarib, O'zbekiston hukumatini vaziyatni yaxshilash uchun konkret choralar ko'rishga undang.

Amerika Qo'shma Shtatlariga

- Inson huquqlari bobida O'zbekistonda, AQSh Kongressi qonunlarida talab qilinganidek, "doimiy va yetarlicha progress" bo'lmayotgani sabab hamda AQSh Davlat departamentining yillik hisobotlarida va Xalqaro Diniy Erkinlik bo'yicha Komissiya hisobotida qayd etilganidek, huquq ahvoli og'ir ekanini hisobga olib, **Amerika hukumati O'zbekiston bilan munosabatlarda inson huquqlari masalasini kun tartibida yuqoriga qo'yishi kerak.**
- O'zbekiston hukumati muayyan vaqt ichida muayyan choralar ko'rsin, inson huquqlari bo'yicha vaziyat yaxshilansin deya qaror berib, buni hukumatga ochiq ayting.
- **Agar bu talablar bajarilmasa, salbiy siyosiy oqibatlarga yetaklashini tushuntiring. Bu oqibatlarga huquqbuzar organlar va rasmiylarga visa berishni man etish, ularning mulklarini muzlatish (ayrimlarga allaqachon shunday cheklovlar qo'yilgan) kiradi.** Qiynoqlar, siyosiy sabablarga ko'ra qamashlar va mustaqil fuqaro jamiyatini tazyiqqa olish singari harakatlarda gumon qilingan shaxslarga sanksiyalar qo'yish mumkin.

AQSh ko'risi kerak bo'lgan boshqa chorlar

- O'zbekistonga xavfsizlik sohasida jamiki yordamni darhol to'xtating. Hukumat qiynoqlar va boshqa huquqbuzarlik hollariga barham bermas ekan, Vashington harbiy ko'mak ko'rsatmasin.
- O'zbekiston hukumati BMTning inson huquqlari bo'yicha organlari bilan hamkorlik qilishdan bosh tortib kelar ekan, respublikada huquqbuzarlik hollari hamon keng ekan, Inson Huquqlari Kengashi qoshida aynan bu mamlakat bo'yicha maxsus organ tuzib, vakil tayinlash tashabbusini quvvatlang.
- O'zbekiston hukumati mahalliy inson huquqlari tashkilotlarini ro'yxatga olib, xorijiy nohukumat tashkilotlarni mamlakatga qayta kiritsin. Ularning xodimlariga visa bersin, akkreditatsiyadan o'tkazsin.
- Qo'shma Shtatlarning Toshkentdagi elchixonasi O'zbekistonda inson huquqlari qanchalik buzilayotgani, siyosiy repressiya, aynan siyosiy sabablar bilan qamoqqa olish hollari, huquq faollariga tazyiqlar va qiynoqlarga befarq bo'lmasin; vaziyatni muntazam ravishda yaqindan kuzatib borsin; bu haqda ochiq gapirsin va chora

ko'rishga chaqirsin. Diplomatlar mahalliy huquq himoyachilari bilan muloqot qilsin, sudlarni kuzatsin, mutassaddilar bilan bu muammolarni ko'tarsin, vaqti-vaqti bilan qamoqxonalarni borib ko'rsin.

- Siyosiy mahbuslar taqdiri, qiynoqlar, adolatsiz sudlar va boshqa huquqbuzarliklar xususida ochiq gapirib, xavotir bildiring. Nafaqat AQSh va O'zbekiston orasidagi yillik muloqot paytida balki jamoatchilik oldida ham. Amerikani bezovta qilayotgan muammolarni ko'tarib, O'zbekiston hukumatini vaziyatni yaxshilash uchun konkret choralar ko'rishga undang.
- Mavjud sanksiyalarga istisno tarzida qabul qilingan qarorni bekor qiling. Jumladan, O'zbekistonning yuqori lavozimli rasmiylari Amerikaga kira olishini man etuvchi bandni. Diniy erkinliklar keng tarzda buzilayotgani va qiynoqlar to'xtamagani bois Davlat departamenti O'zbekistonni alohida tashvishga molik davlat deb hisoblaydi va shunga asosan muayyan cheklovlar qo'yilishi lozim.

Birlashgan Millatlar Tashkilotiga

- O'zbekiston hukumati BMTning inson huquqlari bo'yicha organlari bilan hamkorlik qilishdan bosh tortib kelar ekan, respublikada huquqbuzarlik hollari hamon keng ekan, **Inson Huquqlari Kengashi qoshida aynan bu mamlakat bo'yicha maxsus organ tuzing va uni boshqaruvchi vakil tayinlang.**
- **BMTning tegishli tizimlari, jumladan Qiynoqlarga Qarshi Maxsus Vakili va Inson Huquqlari Himoyachilari bo'yicha Maxsus Vakili O'zbekistonga kirish uchun qaytadan ruxsat so'rasin.** Har bir imkoniyatdan foydalanib, O'zbekiston hukumatidan ma'lumot va hisobot talab qilinsin. Ochiq xatlar yozilsin, matbuot bayonotlari chiqarilsin. O'zbekistonga uning xalqaro burch va majburiyatlarini eslatib, ularni ado etishga undang.
- **BMTning tegishli tizimlari xalqaro talablardan kelib chiqib, O'zbekiston hukumatini javobgarlikka tutsin.** Siyosiy sabablarga ko'ra qamashlar, hibsxonalar va qiynoqlar hamda adliya tizimidagi yuzaki islohotlar xususida O'zbekiston rahbariyati bilan ochiq gaplashing. Bu borada BMT Inson Huquqlari Qo'mitasi va Qiynoqlarga Qarshi Qo'mita o'zining 2007, 2010 va 2013-yillardagi muhokama va xulosalarida alohida to'xtalgan.